



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №37 (том 2)
(апрель, 2023)



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №37 (том 2) (апрель,
2023). Дата выхода в свет: 03.05.2023.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Артикова Мухайохон Ботиралиевна	доктор педагогических наук, доцент
Батурин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Бекжанова Айнура Мархабаевна	доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Уразова Лариса Карамовна	кандидат исторических наук, доцент
Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент
Худайкулов Хол Джумаевич	доктор педагогических наук

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK MULOQOT VA UNING AHAMIYATI XUSUSIDA

Ergasheva Saida Umidjon qizi

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti

o'qituvchisi

Abdunabiyeva Nilufar Ilhomjon qizi

Andijon Davlat Chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich 339-guruh talabasi

Annotatsiya: Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi, ta'lim tarbiya, turli munosabatlar ta'sirida barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonni jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotdan ajratib qo'yish uni shaxs sifatida shakllanishiga to'siq bo'ladi. Mazkur maqolada mana shu muhim omil bo'lmish shaxslararo muloqotga talabalarni tayyorlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tomonlar, talabalarning muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantiradigan usullar va pedagogik jarayonda o'ziga xos bu usullardan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, muloqot madaniyati, ehtiyoj, o'quv jarayoni, shaxs rivojlanishi, axborot almashinuv, muomala odobi, muomala madaniyati, kishi ma'naviyati, nutq madaniyati, fikrni bayon etish, pedagogik takt.

Taraqqiy etayotgan Yangi O'zbekistonda bugungi kunda zamonaviy ta'lim metodining keng qamrovli jihatlari ta'lim tizimida qo'llanilib kelinmoqda. Yurt ravnaqi, mamlakatimiz kelajagi uchun zamonaviy ta'lim katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda, yangi yangilanish davrida zamonaviy ta'limning maqsadi – sifatli kadrlar tayyorlash, talaba shaxsini rivojlantirish, talabalarni ijtimoiy ahamiyatga ega ruhda tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish, talabalarni jamiyatga kerakli shaxs yetuk inson sifatida tarbiyalashdir.

Aslida muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy ehtiyojlar bilan namoyon bo'ladi. «Shaxslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y-fikrlari, istaklari

yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati mislsiz» [4].

L.N.Kulikova, A.V.Molojavenko, V.N.Myasichevlar o'z ishlarida muloqotning talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho berganlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Bu savolga quyidagicha javob olganlar: «Muloqot kishilar orasida umumiylikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo'ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa muloqot, shaxsning o'z-o'zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta'minlaydi va muloqot sub'ektlari orasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga keltiradi».73 Nima uchun muloqotga kirishish kerak, degan savolga javob berishdan oldin biz muloqotga jalb qiladigan odatlar, ehtiyojlar, ko'nikmalar mavjudligini unutmasligimiz kerak. Turli umumiylikka uyg'unlashar ekan inson bu jarayonda u muloqotning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish – muloqot sub'yektining ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalari, shu bilan bir qatorda insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va o'ziga xoslik kabi yo'nalishlar bilan belgilanadi.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot sub'yektlarining ma'naviy-axloqiy yo'nalishigina emas, balki ko'p jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bog'liq bo'ladi. Muloqotning shakli, tasodifiy, tematik, rejalashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilardan iborat.

E'tibor berish, qiziqish, ma'qullash, hamdardlik, istiqbolni ko'ra bilish yordamida ta'sir ko'rsatish, tushunilgan shuningdek anglab yetilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo'naltirish, emotsional muhit yaratish, rag'batlantirish, yo'naltirish bilan bir qatorda hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo'naltirish va muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e'tibori, qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psixolog B.F.Parigin shunday yozadi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuv jarayoni;

- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;
- e) shaxslarning bir-birini tushunish jaraeni.

Muloqot o'z xususiyatlariga ko'ra turli shakl va ko'rinishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllari bilan bir qatorda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi .

O'qituvchining talabalar bilan muomala odobi

O'qituvchi va talaba, ustoz va talaba o'rtasidagi munosabat va muomala madaniyati ularning fe'l-atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli o'qituvchi hamkasbidan, talabasidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yokii yo'qligini, oilaviy munosabatlarga daxldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi yo'qligini yaxshi anglaydi.

Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Ha» so'zini aytishning 50 dan ortiq uslubi bor, «Yo'q» so'zini ham shuncha uslubi bor, lekin bu so'zni yozishni faqat bir uslubi bor». Bu fikr zahirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim, ma'no yashiringan. O'qituvchi muloqotining negizida so'z, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir o'qituvchining saviyasi, ma'naviy dunyosi, madaniyatiga asoslangan bo'ladi. O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda talaba va ular fe'l-atvorini o'rganish, ularning bir-birlariga mehr-muruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish dolzarbligini anglash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagog-o'qituvchining ish faoliyati davomida talabalar bilan muomala munosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda talaba insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Talabalar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim talaba uchun bir umr ideal, ibrat, na'muna bo'lib qolishi shubhasiz.

O'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi asosiy talablardan biri talabaning xulqini, muomalasini, talaba bajargan ishni adolatli baholashdir. Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishiga to'g'ri keladi:

- * o'z faoliyati jarayonida o'qituvchi har bir talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, talabaga nisbatan ishonchi;
- * talabaga mehribon, g'amxo'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lishi;
- * talabalar bilan har qanday vaziyatdagi muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik takti saqlashi zarur.

Barcha me'yoriy hujjatlar hamda Ta'lim to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqadigan ustivor vazifalarni oliy ta'lim muassasalaridagi talabalari, o'quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shuning uchun pedagog xodimlar o'zlarining kasbiy kompetentligi, sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari uchun:

- * odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etishlari, talaba, talaba-talaba, o'qituvchi- talaba shaxsining qadr-qimmatini asrashlari;
- * talabalarni mustaqil fikr yuritish, ilm egallash, mehnatga, qonun-qoidalarga, ota-onalarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari kerak.

XULOSA

Kuzatishlarimiz shuni anglatadiki, talabalarning kommunikativ ya'ni muloqot madaniyatini shakllantirishda mazkur usullardan yetarlicha foydalanishimiz kerak. Mazkur metodlari ta'lim jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Bu o'z navbatida axborot ko'lamining kengayishi va ta'lim jarayonini talaba shaxsiga yo'naltirish bilan bog'liq vazifalar ko'lamining kengayganligi bilan izohlanadi. Shu o'rinda o'qituvchidan nafaqat talabalarda muloqot qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish talab etiladi, balki ulardan ijodiy foydalanishni, talabalar o'rganishlariga bo'lgan ehtiyojni tarkib toptirish zaruriyati ham mavjud. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda teatrlashirilgan darslardan foydalanishning samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Teatrga bo'lgan qiziqishning asosiy ko'lami va yo'nalishi har doim insoniy hamda inson va olam munosabatlari asosida qurilganligidadir. Xuddi mana shu asosni o'yin tarzida sahna asarlari orqali anglash mumkin. O'z kasbiy faoliyati taqozosi bilan o'qituvchi har doim o'zaro aloqalar va hamkorlik muhitida ishlaydi. U goh talabalar bilan, goh hamkasblari bilan muloqot o'rnatadi. Shu bilan bir qatorda, u dars beradigan o'quv predmeti mazmunida o'zaro hamkorlikka asoslangan tadqiqotlarning natijalari

namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar ayniqsa badiiy asar qahramonlari misolida ifodalanadi.

Bu bilan darslarni faqatgina o'yin tarzida o'tkazish talabalar muloqot madaniyatini oshiradi degani emas. Darslardagi o'yin faoliyati yoki treninglar talabalar o'rtasida o'zaro muloqot qilish jarayonini yaratadi, bu jarayon albatta talabalarning muloqot madaniyati rivojlanishiga bir sabab bilan birga turtki bo'ladi. Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda albatta ularning psixologik portretlarini, temperament va xarakter xususiyatlarini o'rgangan holda ularga muloqot madaniyatini rivojlantirish yo'llarining har bir turlarini qo'llab ko'rish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Azizxadjayeva — Pedagogik texnologiya T. 2001 y.
2. U.Tolipov —Pedagogik tehnaologiya T. 2001y.
3. N.Q Saidaxmedov —Yangi Pedagogik texnologiya T. 2008 y.
4. B. Fyerbyerman —Ilg'or pedagogik texnologiya T. Fan 2000 y.
5. O'Asqarova «Pedagogika» T. 2008 y.
6. M.Ochilova, N.Ochilova —Oliy pedagogika T. 2008 y.
7. Nikonova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya. Avtoref. Dis. ... kand. Ped. Nauk. Bryansk. 2001. 18 s.
8. Mardonov O'Shaxslararo insonparvar axloqiy muloqotlar. Uzluksiz ta'lim, 2008-yil, 5-son.
9. Nazarov M. Muloqot madaniyati haqida. Muloqot, 2000-yil, 6-son.
10. Muhiddinov A.F. O'quv jarayonida nutq faoliyati. T.: O'qituvchi ,1995,78-b